

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY JIHATLARI

Jurayeva I.A.*Xorijiy til va adabiyoti kafedrası dotsenti, O'zMU***Abduvaxobova M. V.***Xorijiy filologiya fakulteti 2-kurs talabasi O'zMU*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilidagi frazeologik birliklarni (ibora, maqol, matal) o'zbek tiliga tarjima qilishda ko'plab tilshunoslar duch keladigan muammolar hamda ularning yechimlari haqida so'z boradi. Bundan tashqari, tilshunoslikdagi yangi sohalardan biri — lingvomadaniyatshunoslikning kelib chiqishi va uning frazeologik birliklarni tarjima qilishda tutgan muhim o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar. Lingvokulturologiya, frazeologiya, semantika, kongnitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya tarixi, obrazli etalon, turg'un birikma, madaniy hayot, an'ana.

Abstract. This article discusses the problems that many linguists face when translating English phraseological units (phrases, proverbs, idioms) into Uzbek, and their solutions. In addition, the origins of one of the new areas in linguistics — linguocultural studies — and its important role in translating phraseological units are analyzed.

Key words. Linguoculturology, phraseology, semantics, cognitive linguistics, history of linguoculturology, figurative standard, stable combination, cultural life, tradition.

Аннотация. В данной статье рассматриваются проблемы, с которыми сталкиваются многие лингвисты при переводе английских фразеологизмов (словосочетаний, пословиц, идиом) на узбекский язык, а также пути их решения. Кроме того, анализируется истоки одного из новых направлений в языкознании — лингвокультурологии — и его важная роль в переводе фразеологических единиц.

Ключевые слова. Лингвокультурология, фразеология, семантика, когнитивная лингвистика, история лингвокультурологии, образный стандарт, устойчивое сочетание, культурная жизнь, традиция.

Kirish. Darhaqiqat, til va madaniyat har bir millatning milliyligini belgilovchi muhim omillardir. Avvalo, bu ikki tushuncha bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lib, til o'rganishda madaniyatni bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli hozirgi kunda tilshunoslikda yangi soha – lingvomadaniyatshunoslikni o'rganish, uni tadqiq qilishga talab kuchayib bormoqda. Bu shuni anglatadiki, til o'zida o'sha xalqning madaniyani aks ettirib turadi va o'rganilayotgan tilning madaniy urf-odatlari bilan tanish bo'lish

tilni egallash jarayonini osonlashtiradi. Aynan shu jihatlarni hisobga olgan holda, lingvistika va madaniyat sohalarini birlashtirgan ravishda ko'plab ishlar olib borilishi kerak.

Lingvokulturologiya madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o'rtasida yuzaga kelgan umumlashma fan bo'lib, til va madaniyatning o'zaro ta'siri va bog'liqligi, bu bog'liqlikning shakllanishi hamda yaxlit bir sistema sifatida til va tildan tashqarida aks etishi kabi hodisalarni o'rganish bilan shug'ullanadi [3; 1378]. Xususan, V.N.Teliya ta'kidlaganidek: "lingvomadaniyatshunoslik – tildagi madaniyat omili va insondagi til omilini o'rganishga qaratilgan". Bu fanning asosiy muammolariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- a) inson olamni qanday qabul qiladi;
- b) madaniyatda ko'chim va timsollarning o'rni;
- c) tilda asrlar davomida saqlanib turgan iboralarning madaniy belgilarini ifodalashdagi roli va ularning inson uchun ahamiyati.

Lingvomadaniyatshunoslik boshqa zamonaviy tilshunoslikning antroposentrik yo'nalishlaridan (kongnitiv tilshunoslik, kongnitiv psixologiya, kongnitiv sotsiologiya, psixolingvistika) farqli ravishda tilni madaniy fenomen sifatida tadqiq etadi. Tilshunoslik butun borlig'i bilan madaniy-tarixiy mundarijaga tayanadi yoki tadqiqot predmeti sifatida madaniyatning mahsuli, asosi va shart-sharoiti – muhiti hisoblangan tilni tushunadi. Uning bo'limlari ichida "madaniyat tashuvchi" sifatida eng faollari til tarixi bilan bog'liq sotsial dialektologiya, etnolingvistika, uslubiyat, leksikologiya, frazeologiya, semantika, tarjima nazariyasi va boshqa bo'limlardir [1; 87].

Asosiy qism. "Lingvokulturologiya" atamasi dastlab frazeologik maktab asoschisi V. N. Teliya va V. V. Vorobyov, V. A. Maslova va boshqalarning ishlarida ko'rinadi. Lingvomadaniyatshunoslikning shakllanishi nazariyasining ildizi V. F. Gumboldtning tadqiqotlariga borib taqaladi. Bundan tashqari, bu sohaning rivojlanishida A. A. Potebnya, L.Vaysgerber, H. Glins, H. Holts, W. D. Uitni, D. U. Pauell, F. Boas, E. Sepir, B. L. Uorf, G. Brutyan, A. Vejbitskaya va D. Xaymz kabi tilshunoslarning ilmiy nazariyalari va g'oyalari muhim rol o'ynaganligi ta'kidlanadi [1; 20]. Ana shu g'oyalarga asoslanib yillar mobaynida lingvistikada yangi fan – lingvokulturologiya vujudga keldi hamda XX asrning 90-yilllarida maxsus soha sifatida shakllandi.

O'zbek tilshunoslik ilmida ham bu yo'nalishda qator ishlar olib borilmoqda. Chunonchi, o'zbek tilshunosligida lingvomadaniyatshunoslikning ilmiy asoslanishi, madaniyatning tilda aks etishi kabi qator masalalarga qaratilgan dastlabki ilmiy tadqiqot namunalari sifatida A.Nurmonovning "O'zbek tilida lingvokulturologik yo'nalish", N.Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab", D.U.Ashurova va M.Galiyevalarning "Cultural Linguistics", N.Sayidrahimovanning "Lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishiga doir ayrim mulohazalar",

“Lingvokulturologiyaning komponentlari” nomli maqolalarini, D.Xudoyberganovning “Matnning atropotsentrik tadqiqi” gimonografiyasini, A.E.Mamatovning “Zamonaviy lingvistika”, Sh.Usmonovning “Lingvokulturologiya” mavzusidagi darlik va o‘quv qo‘llanmalarini aytib o‘tish joiz. Mazkur ishlarda lingvomadaniyatshunoslik fanining mohiyati, predmeti va obyekti masalalari o‘rganilgan [7; 1156].

Umuman olganda, lingvokulturologiya tilshunoslikning yangi yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, barcha xalqlar tilida bir vaqtning o‘zida namoyon bo‘ladigan til va madaniyatning o‘zaro to‘qnashuvi asosida shakllangan madaniyat, urf-odat va an‘analarni o‘rganuvchi fandır. Bu fanni o‘rganish asosida biz milliy qadriyatlar, urf-odatlar orqali tilning vujudga kelishi va qanday qilib mustaqil fikrlash qobiliyatlarini bilib olishimiz mumkin. Bundan ko‘rinib turibdiki, lingvokulturologiyada orqali nafaqat mavjud bo‘lgan tilning o‘ziga xos xususiyatlari, balki mana shu tilda so‘zlashadigan xalqning qadriyatlari, e‘tiqodlari, madaniy hayoti haqida ma‘lumotga ega bo‘lamiz.

Demak, shu o‘rinda tilshunoslik - lingvokulturologiya xalqlarni yanada chuqurroq o‘rganishda madaniyatshunoslik, tarix, psixologiya, etnografiya kabi fanlar bilan hamkorlik qilishini ta‘kidlash lozim. Lingvokulturologiyaning tadqiqot obyekti sifatida asosan folklor namunalari olishimiz mumkin. Shuning uchun ham iboralar, maqollar, matal va metaforalar o‘sha xalq haqida asrlar davomida to‘liq ma‘lumot berish bilan birga, milliy qadriyat va an‘analarni saqlaydigan bebaho boylikdir. Buyuk rus tilshunosi Larin idiomalarga quyidagicha ta‘rif bergan: “Idiomalar doimo xalqning dunyoqarashini, ma‘lum bir davrning, jamiyat qurilishining ustuvor g‘oyalarini ifodalaydi”.

Frazeologizmlar millatning dunyoqarashi, turmush tarzi, axloqiy tamoyillari haqida muhim axborot beruvchi birliklar bo‘lib, ularni tarjima qilishda ham aynan mana shu nozik farqlarga e‘tibor qaratish lozim. Frazeologik birliklarning tarjimasiga oid masalalar G‘. Salomov, Q. Musayev, Yu. Po‘latov, S. Abidxodjayeva, G. K. Odilova, I. G‘afurov, O. Mo‘minov, N. M. Qambarov, M. Xolbekov, Sh. Safarov kabi olimlarning tadqiqotlarida atroflicha o‘rganilgan. Tilshunos V. A. Maslovaning fikricha, frazeologik birliklar o‘z ma‘no qurilishida milliy madaniyat taraqqiyotining ko‘p yillik jarayonini aks ettiradi va madaniy stereotiplar, etalonlar, arxetiplarni avlodlararo uzatilishini ta‘minlovchi vositadir [3; 87].

Borliqni idrok etish va aks ettirish nuqtai nazaridan turg‘un so‘z birikmalarining uch guruhi farqlanadi:

- a) o‘zida olamni idrok etishning umuminsoniy tajribasini biriktiruvchi;
- b) u yoki bu lingvomadaniy jamoa hayot tarzi bilan bog‘langan turli vaziyatlarda orttirilgan tajribani biriktiruvchi;

c) muayyan millatning olamni idrok etish tajribasi, olamni milliy o'ziga xos ko'rishini aks ettiruvchi so'z birikmalari [6;120]. Birinchi va ikkinchi guruhlar vaziyatga nisbatan borliqni konseptuallashtirishga asoslangan. Uchinchi guruhning lingvistik ko'rsatkichi tajribani boshqa tilga tavsiflashga asoslanadi.

Qayd etish joizki, frazeologik birliklar har bir millatning o'z yashash tarzidan, madaniyatidan va qarashlaridan kelib chiqqadi va milliy ruh bilan sug'oriladi. Shunga ko'ra bu birliklarning kelib chiqishi har xil lingvistik manbalarga borib taqaladi. Aytaylik, S. V. Ivanova frazeologizmlarning madaniyatga bog'liqligini quyidagi guruhlariga bo'lgan holda asoslagan:

- obrazga aloqadorlik: *ichini mushuk tatalayapti* (ruhan bezovtalanmoq, tashvishlanmoq); ingliz tilida - *to be at the top of the ladder/tree* (o'z kasb sohasida imkon qadar eng yuqorida bo'lmoq, juda omadli bo'lmoq);
- vaziyat bilan munosabatdoshlik, amalda orttirilgan bilimning ma'lum bir bo'lagi: *bir qarich* (yozilgan panjaning bosh barmoq uchidan jimjiloq uchigacha bo'lgan uzunlik); ingliz tilida - *baker's dozen* (o'n uch);
- muayyan xalqning turmush tarzi bilan o'zaro bog'langan so'z: *do'ppisini yarimta qilib* (g'am yemasdan, shod-xurram bo'lib, yallo qilib); ingliz tilida - *to be in the Queer Street* (qarz, muammo, qiyinchiliklar vaziyatida bo'lmoq)
- frazeologizmlar asosidagi madaniy tushuncha: lafzda turmoq (ahdini saqlamoq), taqdirga tan bermoq (e'tirof qilishga majbur bo'lmoq, rozi bo'lmoq); ingliz tilida - *to put someone in mind of something* (qandaydir hodisa, inson yoki narsani eslashga majbur qilmoq) [6;46].

Yuqoridagi misollardan ko'rishimiz mumkinki, o'zbek tilidagi frazeologizmlarda *do'ppi* timsoli keltirilgan, chunki bu bosh kiyim xalqning milliy madaniyatining bir qismi hisoblanadi. Xuddi shu singari ingliz tilida ham mana shunday obrazlar mavjud bo'lib, *to be in the Queer Street* iborasining kelib chiqishi Londondagi bir marta kasodga uchragan sudlar joylashgan Carey Streetga borib taqaladi. Yana bir obraz-etalonli komponentlaridan biri cho'chqa timsoliga to'xtaladigan bo'lsak, ingliz tilida *cho'chqa* etaloni bilan bog'langan bir nechta iboralar mavjud va ifloslik (*a pigsty*), ochko'zlik (*make a pig of oneself, pig out*) kabi salbiy ma'nolarga ega. "*Cho'chqa*" politsiya xodimi yoki erkak shoviniistni sifatlash uchun jargon atamasi sifatida ham ishlatiladi. Shunga qaramay, o'zbeklar va umummusulmon xalqlarida diniy nuqtai nazardan cho'chqa harom sanaladi, odatda haqorat so'zi sifatida nutqda qo'llanadi. Ko'rinib turibdiki, xalqlar madaniyatidan bexabarlik bir tilni o'rganish mobaynida bir qancha qiyinchiliklarni tug'diradi va bu, ayniqsa, frazeologik birliklarning tarjimasida yaqqol namoyon bo'ladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, lingvokulturologiya sohasini mukammal tadqiq qilish va izlanishlar olib borish orqali turli xalqlar o'rtasida

madaniyatlar almashinuvi sodir bo‘ladi hamda tillarni o‘zlashtirish jarayoni birmuncha yengillashadi. Bundan tashqari, ingliz tilidagi frazeologizmlarni o‘zbek tiliga o‘girishda har ikki millatning mentaliteti, madaniyati, dunyoqarashlari bilan tanishish tarjimadagi aniqlikni oshiradi va til o‘rganuvchilarga qulayliklar yaratib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qo‘ziyev U. Lingvomadaniyatshunoslik - Uslubiy qo‘llanma. NamDu nashri: Namangan – 2021; -122 b.
2. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab ... - O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. - № 5; -100 b.
3. Odilov A. A. Lingvokulturologiya fanining yuzaga kelish tarixi - SCIENTIFIC PROGRESS – Uzbekistan -2021; -1376-1379 p.
4. Khayatova Dilafruz Zoyirovna Study of Linguoculturology in Linguistics - Miasto Przyszłości Kielce-2022: ISSN-L: 2544-980X; -292-293-p.
5. Qo‘ldasheva, S.A. (2024). Dunyoni til yordamida bilishda ongning roli. “Tarjimashunoslik: muammolar, yechimlar va istiqbollar II” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, 1(1), -750–752.
6. Nurmuhammedov Y. Frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari. Monografiya. – Samarqand: SamDU nashri, 2021.– 136 b.
7. Amonova M. O. Lingvomadaniyatshunoslik fanining tarixiy va nazariy negizlari - Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences – Tahkent- May 2021; 1554-1559 b.
8. Rasulova M.I. Ingliz va o‘zbek tillarida kasbga oid frazeologizmlarning semantik –grammatik va uslubiy xususiyatlari. -Buxoro, 2015. -45 b.
9. Salomov G’. Rus tilidan o‘zbekchaga maqol, metal va idiomalarni tarjima qilish masalasiga doir. - T.: “Fanlar Akademiyasi” nashriyoti, 1961. -159 b.
10. Vorobiev V. V., Lingvokulturologiya: Theory and Methods. Moscow: RUDN, 1997. 331 p.
11. Jurayeva I.A. Антропонимик лексикасининг лингвомаданий tadqiqoti. Т., Faybullla Salomovning 90 yilligiga bag‘ishlangan xalqaro konferentsiya tiplami. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7481338>
12. T., 2022. 80-84 b.
13. <https://en.wikipedia.org/wiki/Phraseology>.